

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
«MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI» kafedrası

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Fakultet dekani

« ____ » _____ 201__yil

5141700-«Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti» yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

«EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ TOPISHMOQLARIDAN
FOYDALANISH USLUBLARI» MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:

Xasanboyeva Laziza

Ishni himoyaga tavsiya
etaman ilmiy raxbar:

o'qit.G.Xamidova

Ilmiy maslahatchi:

dots.O.Jamoldinova

BMI «Maktabgacha ta'lim nazariyasi va
metodikasi» kafedrasining yig'ilishining
qarori bilan (Qaror №__ _____ 2011
yil) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri v/b: _____ G.Qo'shaqova

JIZZAX – 2011

MUNDARIJA

KIRISH

1.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Ekologik tarbiya haqida. MTM da ekologik tarbiya. _____
- 1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning amaldagi ahvoli..... _____

2.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ TOPISHMOQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI, SHART-SHAROITLARI.

- 2.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish mazmuni..... _____
- 2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berishning shakl, usul va metodlari..... _____

3.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ TOPISHMOQLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

- 3.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarini tashkilotish yo'llari
- 3.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov tahlili va ularning samaradorligi. _____

Umumiy xulosa _____

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... _____

Ilova..... _____

Kirish

Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularni ona yurtni sevishga, moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylashga, atrof-muhit tozaligini ta'minlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni maktabgacha yosh davridan boshlab tabiatni asrab-avaylashga oid ekologik bilim bilan qurollantirish va tabiat bilan yaqindan tanishtirib borish, shu orqali ularning borliq haqidagi tasavvurlarini boyitish, dunyoqarashini o'stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma'naviy hissiyotlarini rivojlantirish juda muhim.

Bolalarda ilk yoshdanoq inson va tabiat, ularning bir-biriga nisbatan ta'sir ko'rsatish, uyg'unligi haqidagi bilimlarni berish, ona tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish – bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Shu bois, maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga ekologik tarbiya berishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, zamonaviy shakl va usullarini topish, tarbiyaviy vositalarini aniqlash talab etiladi.

Albatta maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan keng foydalaniladi. Chunki, xalq og'zaki ijodi janrlari sodda tildaligi, ta'sirchanligi, tushunarligi bilan bolalarning zehni charxlashga, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, topishmoqlar ixchamligi, mazmunan teranligi, zavqliligi va qofiyalari bilan bolalarni o'ziga tez jalb qiladi va esida saqlanib qoladi.

Topishmoqlar ma'naviy jihatdan yuksak mazmun va mohiyatga ega. Topishmoqlar orqali bolalarga tabiat, borliq, narsa-hodisalar haqida bilim berish, ularda hayot go'zalligini tushunib yetishlariga, tevarak-atrofdagi barcha narsalardan zavqlanishga, ularni qadrlashga o'rgatiladi.

Shu bois, keyingi yillarda bu masalaga asosiy e'tibor qaratila boshlandi. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimida ekologik tarbiya berishning ilmiy asoslari

yaratildi. Atrof-muhitni muhofazalashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning tashabbuslari bilan O'zbekiston ekologik harakati tashkil etildi.

Mamlakatimizda inson salomatligini muhofaza qilishda ekologiyaning ta'sirini inobatga olib, hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida bu masalaga chuqur ilmiy nuqtai nazardan yondashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida alohida Qo'mita faoliyat boshladi.

Fanda esa ekologlar, biologlar, pedagoglar tomonidan ekologiyaning inson hayotidagi o'рни, ekologik tarbiya berish muammolari ilmiy jihatdan o'rganilmoqda. Jumladan: I.D.Zverev ekologik tarbiya berishning pedagogik yo'nalishlarini, E.O.Turdiqulov uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqdilar.

Shuningdek, M.Mirboboyev, X.Hudoyberdiyev, I.Normatov, Sh.Avazov, N.Nishonovalar xususiy fanlarni o'qitishda ekologik tarbiya berish masalalarini, Yu.Shodimetov, S.Mamashokirovlar ekologik muammolarni tadqiq etgan bo'lsa, L.Zaripova, I.Allayeva va ko'plab rus olimlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish muammolariga oid qo'llanmalar yaratdi.

Lekin ularda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berish masalalari qamrab olinmagan.

Shu bois, biz tadqiqot ishimizni "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish uslublari" deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va metodik tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning ob'yekti: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, mazmuni, tadbiiq etish usullari.

Tadqiqotning vazifasi: Xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berish pedagogik muammo ekanligini aniqlash;

- Mavzuga oid manbalarni tahlil qilish;
- Ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning ahvolini aniqlash;

- Xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berishning samarali usuli va vositalarini ishlab chiqish;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning samaradorligi aniqlash.

Tadqiqotning metodlari: anketa, savol-javob, suhbat, test, tajriba sinov, matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tabiatni muhofaza qilishga oid qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlari, Qonunlar, sharq mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari, shu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan keng foydalanilsa, bu yoshdagi bolalarga tavsiya etilayotgan xalq topishmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari mazmuni to'g'ri belgilansa va samarali usullari aniqlansa, ko'zlangan maqsadga erishish imkoni beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Ishda ilk bor MTM da xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berish ahvoli tahlil etildi;

- Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish mazmuni yaxlit holda belgilandi;

- Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning yo'llari, vositalari va usullari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: MTMda ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish yuzasidan ishlab chiqilgan metodik tizimdan MTMning tarbiyachilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, malaka, oshirish va qayta tayyorlash kurslarida, oliy va o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari talabalariga bilim berishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishimiz MBI holida rasmiylashtirildi. Hajmi betdan iborat bo'lib, 2 bob, 3 paragraf, xulosa va tavsiyalar, adabiyotlar ro'yhati, ilovalardan iborat.

Tajriba sinov ishlari uch bosqichda olib borildi:

Birinchi bosqichda – mavzuga oid ilmiy-metodik manbalar o'rganildi, MTMda tevarak-atrof bilan tanishtirish ham badiiy adabiyotga oid mashg'ulotlar kuzatildi, bolalarning ekologiyaga oid bilim darajasi aniqlandi, tarbiyachilar bilan suhbat, anketa so'rovlari o'tkazildi. Bog'chaning ish hujjatlari o'rganildi.

Ikkinchi bosqich – tadqiqot dasturi, nazariy asosi va mazmuni aniqlandi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning shakl va metodlari ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqich – tajriba sinov ishlari olib boriladigan guruh tarbiyachilari maxsus tayyorgarlikdan o'tkazildi. Ishlab chiqilgan dastur sinovdan o'tkazildi, natijalari umumlashtirildi, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Ekologik tarbiya xaqida. MTM da ekologik tarbiya.

Prezidentimiz I.Karimov rahnomaligida yoshlarning ekologik bilim va madaniyatini muttasil yuksaltirish, ularda ona tabiatni asrab avaylash, uning ne'matlaridan oqilona foydalanish ko'nikmalarini mustaxkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", 55-moddasi "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deb belgilab qo'yilgan. Bu har bir fuqaroni atrof tabiiy muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyatini yuklaydi. Ona tabiat tomonidan bizga in'om etilgan beg'ubor musaffo osmonimiz tabiiy boyliklarimiz, ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarixiy obidalar, qo'riqxonalar, bog' va o'rmonlarimizni, boringki, diyorimizda ungan har bir daraxt, niholni asarb-avaylashimiz kelajak avlodlar uchun qoldirishimiz zarur.

Ma'lumki, O'zbekiston o'zining yovvoyi tabiatini asil holicha saqlab qolgan barmoq bilan sanarli davlatlar sirasiga kiradi. Shu bilan birgalikda mamalakatimiz, sayyoramiz biosferasi barqarorligini qo'llab-quvvatlash va uning tirik mavjudotlarini asrab-avaylash hamda saqlab qolishda yuqori samaradorlikka erishayotgan markazlardan biri sifatida ham e'tirof etilmoqda. Markaziy Osiyo ekologik barqarorligini ta'minlash, ekologik fojea o'choqlarini bartaraf etish borasida O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va tashabbuslar jahon hamjamiyati hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanayotir. Yurtimizda O'zbekiston ekologik harakati kabi faoliyati serqirra

jamoat tashkiloti tashkil etilgani esa, bu yo'nalishdagi muhim muhim qadamlardan biri bo'ldi, deyish mumkin. Nafaqat mamalakatimizda, balki mintaqamizda ekologik vaziyatni yaxshilashda, atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarni yoshlarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, maktab ta'limida ekologik ta'lim-tarbiyaga yanada katta e'tibor qaratilishi, maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirib borish zarur. Chunki, yoshlar ongida ekologik dunyoqarashni shakllantirmasdan va uni mastahkamlamasdan turib, ekologik barqarorlikka erishish qiyin.

Ekologik ta'lim esa inson faoliyatining barcha qirralariga ta'sir eta oladigan kuchga ega bo'lishi darkor. Bir masalaga chuqurroq yondashsak. Amaldagi umumta'lim maktablari dasturlari, misol uchun, biologiya va shunga o'xshash tabiiy fanlar, yoshlarga mamlakatimizdagi o'zimlik va hayvonot olami haqida umumiy nazariy bilim beradi xalos. Tadqiqotlarni ko'rsatishicha, o'quvchilar o'z yurtidagi biologik xilma-xillik haqida tushunchaga ega bo'layapti-yu, ammo uni asrab-avaylash uchun nimalarga e'tibor qaratish zarurligi to'g'risida yetarlicha ko'nikma olmayapti. Bu albatta yosh avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirish masalasini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

Ekologik ta'limda ekologik dunyoqarashni shakllantirishning eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan inson bilan tabiat uyg'unligiga amal qilinishiga erishish zarur. Bundan tashqari, zamonaviy ekologik ta'lim shu jihatni e'tiborga olishi kerakki, bilim orqasidan darrov ungaishonch tug'ilmaydi, demak, ishonchdan harakatlar kelib chiqmaydi. Ma'lum hayvon va o'simlik turlari haqida bilim berish – bolalar ularni asrab-avaylashni boshlaydi, degani emas.

Zamonaviy ta'limning vazifalaridan biri – bu, istagan yo'nalishda vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha harakatlarda mujassam topgan ekologik irodani tarbiyalash ham hisoblanadi. Buning uchun , avvalo, tarbiyachi-pedagoglar

yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo'lmog'i lozim. Aynan ularning qo'llanilishi bolalarda anglash faolligini va amaliy faoliyatda ishtirok etishga intilishni muayyan darajada oshirada. Ta'limning interfaol usullarini tadbiiq etishga undagan holda, ta'lim muassasalarida darslar va darsdan tashqari tadbirlarni ishlab chiqishda yetarlicha yordam ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda maktab ta'limini rovojlantirish Davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi umumta'lim maktablarini zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlashga imkon yaratdi. Bugun maktablarda ta'limning eng zamonaviy texnologiyalari asosida o'quvchilarga bilim berilmoqda.

Mamlakatimizda ekologik ta'lim uzluksizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar qamrovi tobora kengayib bormoqda.

Maktablarimizda "Tabiat", kollej va institutlarimizda "Ekologiya", "Ekologiya huquqi" fanlarining o'qitilishi yosh avlodni ekologiyaga oid bilimlarni mustahkamlash uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, bolalarning dastlabki ekologik tushunchalari maktabgacha yosh davridayoq shakllana boshlaydi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga ulkan vazifalarni qo'yadi.

Xalqimiz boy ekologik madaniyatga ega. Asrlar davomida shakllanib kelgan boy milliy ma'naviy qadriyatlarimiz va merosimiz shundan dalolat beradiki, otabobolarimiz, ajdodlarimiz Ona zaminga o'zgacha munosabatda bo'lib, suv, tuproq, havoni qadrlaganlar. Tabiat boyliklari va uning ehsonlarini asrab-avaylab, ulardan tejab foydalanganlar. Ma'naviyatimiz poydevori hisoblangan muqaddas hadislarda: "Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar", deyilgan. Isrof qilmaslik, uvol, gunoh va me'yori kabi tushunchalarni yaxshi anglab yetganlar va kundalik turmush faoliyatida ularga qat'iy amal qilganlar. Atrof-muhitni, uyni, mahallani, ko'chakuyni, shahar, qishloq, ovullarni, bozorlarni, ariqlarni, hovuzlarni toza, saranjom-sarishta tutganlar. Boshqacha aytganda, ekologik ma'naviyatga, ekologik qoida va

mezonlarga to'la amal qilganlar. Daraxtzor, bog'-rog'larni yaratilganligi haqida tariximizdan ko'plab ma'lumotlarni keltirish mumkin. Bog' yaratish san'atiga xalqimiz azaldan ega bo'lgan. Oilada farzand tug'lsa unga atab daraxt ekilgan. Tirik jonivorga ozor yetkazilmagan. Tabiat bilan uyg'unlikda hayot kechirishgan, yashash muhitiga, tabiatga nisbatan loqaydlik, befarqlik qoralangan va pirovard natijada tabiat muvozanatini saqlagan.

Xalqimizda yaxshi bir naql bor: "Atrof-muhit tozaligi uyning ostonasidan boshlanadi". Har bir xonadonning sarishtaligi, obodligi uning ostonasida, ko'chakuy, hovli-joyni toza va saranjom tutishda bilinadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek, ota-onalar bolalarga tabiat in'om etgan suvni asrab-avaylash, tuproq va havoni ifloslantirmaslik, o'simlik-yashillik olamini saqlash haqidagi o'g'itlarni doimiy ravishda singdirishlari va ularning hayot mezoniga aylantirishlari talab etiladi. Bolalarimizga, O'zbekiston uchun tobora qadrli bo'lib borayotgan ichimlik suvidan tejab-tergab foydalanish munosabatini shakllantirish ayniqsa, o'ta muhim masaladir.

Ta'kidlash joizki, ayniqsa bizning o'lkamizda yer va suv asosiy milliy boylik bo'lib, xalq faravonligining asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, inson salomatligi ham millat boyligi hisoblanadi. Binobarin, toza ichimlik suvi har bir oila sog'lom hayot yuritishning muhim sharti hisoblanadi. Bugungi avlod o'sib, ulg'ayib, insonlar hayoti va atrofimizdagi tabiatni asrab-avaylash haqida hal qiluvchi qarorlar qabul qilishi kerak bo'ladi. Oilada ota-onalar, kattalar tomonidan bolaga birlamchi ekologik madaniyat saboqlari beriladi. Tabiatdagi sodir bo'layotgan hodisa va o'zgarishlarning bevosita har bir kishining salomatligiga, ruhiyatiga, kayfiyatiga ta'sirini ota-onalar o'z bolalariga astoydil tushuntirsalar, bola ko'nglida muhrlanib va shunday narsalarni bilishga hamda oqilona xatti-harakatlarga rioya qilishlariga intilishlari oshadi.

Avvalombor, bolalarimizda ekologik madaniyat saboqlarini shakllantirishda kattalarning tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabati katta o'rin tutadi. Ota-onalarning atrof-muhit tozaligini saqlashga bo'lgan doimiy e'tibori, say-harakatlarini ko'rgan va his qilgan bolalar – farzandlar, ular orqasidan ergashishga harakat qilishadi, ulardan namuna va o'rnak oladilar. Oila davrasida birgalikda erta bahorda hovli va ko'chada daraxt ekish, uni parvarish qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, hovlini obod qilish har bir bola uchun yaxshi namuna maktabini o'taydi hamda atrof-muhitga bo'lgan ezgu munosabatini belgilashda zamin yaratadi.

Ko'kalamzorlashtirish jarayonlariga jalb etilgan bolalarning o'z navbatida estetik dunyoqarashi va tafakkuri kengayib boradi, tabiatdan, uning boy xilma-xil ranglaridan ma'naviy estetik zavq olishi, tabiatga oshnoligi kuchayadi. Gullarni hush ko'rmaydigan bolaning o'zi yo'q. Xonadonimizda madaniy gullarni ko'paytirish va parvarish qilish ekologik tarbiyaning yaxshi unumli vositasi bolalarning ekologik ongini rivojlantiradi. Xonadondagi gullar, yashil o'simliklar o'z navbatida havoni kislorod bilan ta'minlab bolalarimizning toza havo bilan nafas olishni ta'minlaydi. Qizlar ayniqsa gullarga oshno bo'ladilar, o'g'il bolalar esa tirik jonivorlarni parvarish qilishga moyil bo'ladilar. Ota-onalar, ayniqsa ayollar bolalarning erta yoshligidanoq bu moyilliklarni aniqlab, bu yo'sinda ish olib borishlari farzandlarining dunyoqarashini kengayishiga olib kelib, yaxshi natija beradi. Bolalarning maktabda olgan, tabiat haqidagi bilim va saboqlarini ota-onalar ularga kundalik hayotda rioya qilishlarini va amalda tadbiq etishlarini tushuntirishlari va kuzatishlari lozim. Farzandlarimiz munosabatida isrofgarchilik alomatlariga aslo yo'l qo'ymaslik, uni oldini olish va tejamkorlik hislatini yoshligidanoq singdirish zarur. Tabiat tunganmas hazina emas, ko'plab tabiat boyliklari tiklanmaydi. Takidlash o'rinliki, bolalar davri inson hayotining ilk betashvish bosqichi hisoblanadi. Bolalar atrof-muhit va unda ro'y berayotgan

hodisalarni emosional hissiy yondashadilar. Buning natijasida ularda asta –sekin hodisalar mohiyatini ifodalovchi shaxsiy qarash sifat va mustaqil munosabat shakllanib ularning ruhiyatida saqlanib qoladi. Tabiatning kuchli tarbiyaviy salohiyatini hisobga olib oila bilan birgalikda tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish o'z navbatida bolalarning kuzatuvchanligini o'rab turgan tabiiy muhitdan estetik zavqlanishini hamdardlik tuyg'usini tabiat qo'ynida o'zlarini qanday tutish qoidalari va odobini shakllantirishga ularning sog'lom ma'naviy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

Tabiatni asrash har kimning insoniy burchidir. Tabiatni asrash ajdodlarimizdan qolgan merosdir. Xalqda ekologik tarbiya berishning o'z yollari bo'lgan ular pand nasixat, tushuntirish, o'rgatish orqali bolalarga singdirilgan.

O'tmishning buyuk mutafakkirlari A.R. Beruniy, Ismoil Jurjoniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibin Sino, Alisher Navoiy va boshqalar tabiatni asrash unga mexr berish haqida o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Beruniyning “dorivor o'simliklar haqida” Ibin Sinoning “Tib qonunlari” asarlari shular jumlasidadir.

Bugungi kunda tabiatda yo'qolib botayotgan o'simlik va hayvonlar turlari “Qizil kitobga” kiritilib davlat muhozasiga olingan. Bollar qalbida tabiatga mehr qancha erta uyg'otilsa ular tabiat bilan shuncha uzviylashadi. Bola tabiatga erta mehr qo'yadi. Bunda albatta tarbiyachi pedagoglarning mehnati ta'sir vositasi kuchli bo'lish talab etiladi.

Tabiatdagi barcha narsalar kichkintoylar uchun qiziqarli tuyuladi. Ular shu topishmoqlarni bilishga, sabablarini anglashga fikrlashga ehtiyoj sezadilar.

MTM da ekologik tarbiya berish 30-yillardanoq boshlangan. Biroq unda ekologik tarbiya konsepsiyasi ishlab chiqilmagan edi. Dastur va rejalar ham bugungi kabi mukammal bo'lmagan.

50-yillarga kelib MTM tarbiyalanuvchilarining ekologik tarbiyasini ilmiy-nazariy jihatdan tashkil qilishga qaratilgan dasturlar yuzaga kela boshladi. MTMda

bolalarga ekologik tarbiya berishning turli shakllari, metod, usullari paydo bo'la boshladi. Bayram ertaliklari o'tkazilib, bolalarning tabiatga yaqinligini, ularga nisbatan mehrini uyg'otishga harakat qilindi. Natijada ekologik tarbiyaga oid qo'llanmalar. Metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Pedagog P.Yusupovning "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish" kitobi bolalarni o'simliklar, jonivorlar, qushlar va tabiat bilan yaqindan tanishtiruvchi manba ekanligi bilan ajralib turadi. Unda tarbiyachilarga amaliy ish jarayonida mavzuga xos adabiy asarlar tanlash yuzasidan tavsiyalar hamda tabiatni kuzatish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Folklorshunos O.Safarov o'zbek bolalar xalq poetik ijodini tadqiq qilar ekan, bolalarning quyosh, oy, kamalak, shamol, yomg'ir va boshqa tabiat hodisalariga munosabatini ifodalovchi qo'shiqlari bolalarga ular haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni beradi.

Shuningdek, bu borada ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borildi. P.Yusupovning "Katta yoshli maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni O'zbekiston sharoitida o'suvchi o'simliklar bilan tanishtirish va shu orqali dunyoqarashini shakllantirish", X.Bobomirzayevning "O'zbek bolalar folklorining pedagogik mohiyati va o'quv-tarbiyaviy jarayonda ulardan foydalanish", M.Rahimqulovning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik qadriyatlar asosida tarbiyalash" mavzusidagi dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

Shunday qilib, maktabgacga tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish muhim pedagogik muammo bo'lib, XX asrning 30-yillaridan to hozirgacha o'z yechimini kutayotgan masala. Albatta, bu masala o'z davrida yechimini topgandek bo'lsada, yangi axborot texnologiyalari asrida, ekologik global muammolar mavjud bo'lgan bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda.

Bu muammoni chuqur o'rganish, birinchidan maktabgacha yoshdagi bolalarning ona tabiatga muhabbatini oshirishga yordam bersa, ikkinchidan, ekologik bilimlarini boyitadi, tabiat olamiga olib kiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishning yana bir zarurati mintaqamizda turli xil kasalliklarning ko'payib ketishi bilan uzviy aloqadordir.

Tibbiy statistika ma'lumotlariga qaraganda orol bo'yi hududlarida yashovchi aholi o'rtasida turli kasalliklar boshqa hududlardagiga nisbatan keskin oshgan. Ayniqsa, bolalar xastalıkları ko'p tarqalganligi barchani tashvishga soladi.

Sog'lom bolalarning tug'ilishi uchun zarur sharoitning yetishmasligi va ona organizmining salbiy tashqi ta'sirlarga qarshi kurashish kuchining susayib borishi, tuproq qatlamlarining parchalanishi ham ekologik ta'lim-tarbiyani zaruratga aylantirayapti.

Muhim sabablardan yana biri, "Qizil kitobga" kirayotgan o'simlik va hayvonlar sonining ortib borayotganligi. Yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlarni asarb qolish ularga g'amho'rlik ko'rsatish haqidagi bilim, ko'nikma kichik yoshdan boshlab singdirilishi maqasadga muvofiqdir.

1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning amaldagi ahvoli.

Tadqiqot avvalida maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan ahvolini kuzatib, mazkur masalani yechish yuzasidan dastur va qo'llanmalarning mazmuni, bolalarning xalq topishmoqlarini bilish darajasi, bu borada qo'lga kiritilgan tajribalarni umumlashtirishga harakat qildik.

Ma'lumki, katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmuniga ko'ra bolalar:

- a) yer, osmon, osmon yoritgichlarini, havo, suv resurslarini, bulut, yog'ingarchilik turlarini, tuman, shamol, chaqmoq, momaqaldiroq kabi tabiat hodisalarini;
- b) o'simlik va hayvonot turlarini;
- c) qushlar va parrandalarni;
- d) hasharot va sudralib yuruvchi jonzotlarni va h.k.larni bilishi, tanishi, ularning inson hayotida tutgan o'rnini anglab yetishi, asrab-avaylashga intilishi lozim.

Bu ko'nikmalarni hal qilishda esa topishmaqlar qulay imkoniyatga ega. Aksaryat topishmoqlar esa aynan shu mavzularda yaratilgan.

Aniqlovchi bosqich tadqiqotlarimizni olib borgan Jizzax shaxri 10 – sonli “Do'stlik” MTMning katta gurixlarida bolalar meva sabzovotlar , hayvonlar, qushlar gullar xususida bir qator topishmoqlarni biladilar. Buni biz bolalarga tipishmoqlar berish orqali aniqladik.

Shu bilan birga bolaqlarning bilimlarinikuzatish og'zaki so'rovlar ota onalari bilan suxbat o'tkazish orqali rasimli kartochkalardan foydalanish testlar o'tkazish usullarini qo'lladik .

Bu bosqichda MTM da “Tevarak atrof va tabiat bilan tanishtirish mashhulotlari”, “Badiy adabiyot” mashhulotlari kuzatildi.

Bunda bolalarning ekalodik mavzudagi topishmoqlarni maishiy topishmoqlarga nisbatan kamroq bilish aniqlandi. Ko’pchilik bolalar topishmoqlarning o’zini bilsalarda mazmunini teran anglamaydilar. Ayniqsa topishmoqning maznunini anglashda qiynaladilar. Masalan katta gurixdagi 30nafar bolalar bilan savol javob o’tkazilganda “ Kichkina dekcha ichi to’la mixcha” “Yer tagida oltin qoziq” , “ Boshi taroq dumi o’rtoq “, “Qorday oppoq parday yumshoq” kabi topishmoqlarda javob topaoldilar halos.

Lekin bolalar tabiyat vaq o’simliklar hayvonlarga oid yangi zamonaviy topishmoqlarni bilmaydilar. Masalan

- Qanoti yo’q uchadi, keng olamni quchadi.
- Pak pakana bo’yi bor yetti qavat to’ni bor
- O’zi qip qizil asal to’ni bor ko’k baxmal
- Katta oppoq dasturxon hamma yoqni qoplagan kabi topishmoqlarga javob topa olishmadi.

Kuzatishlarni ko’rsatishicha tarbiyachiloar mashgulotlardan tashqari vaqtlarda sayir jarayonida bolalarda ekalogik tarbiya brishda xalq topishmoqlaridan foydalanishlari yetarli darajada emas.

Shuningdek, bolalar bilan yakka-yakka suhbatlar ham tashkil etildi. Unda bolalarning ko’pgina qismi ekologikyaga oid topishmoqlarni aytib bera olmadilar.

Biz ularga topishmoqlarning mazmunini tushuntirib javob topishlarini so’radik:

- O’tda yonmaydi, suvda cho’kmaydi;
- O’zi shirin tukligina, mazasi totligina;
- Qat-qat to’nli, qariya bo’yli;
- Osti tosh, usti tosh, o’rtasida jondor bosh kabilar.

Tadqiqot jarayonida bolalarga rasmlı kartochkalar ko'rsatib, testlar orqali to'g'ri javob berishga chaqirildi. Bolalar berilgan topishmoqning to'g'ri javobini variantlar ichidan topish va rasmini ko'rsatishi kerak rdi.

Tadqiqotlarda ishtirok etgan ko'pchilik bolalar savollarga noto'g'ri javob topdilar. Shu bilan birga guruhlarga qiziqarli bellashuvlar ham tashkil etildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bolalar topishmoqlarni kam biladilar, noto'g'ri javob beradilar.

Xo'sh bunday adolatning asosiy sabablari nimada?

Birinchidan, yuqorida aytib o'tilgandek tarbiyachilarning mashg'ulotlarda xalq topishmoqlarini o'rgatishga bo'lgan e'tiborining kamligi;

Ikkinchidan, ota-onalrning ham oilada bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishlaridagi kamchiliklar; ya'ni bolalarga XOI namunalarini aytib bermasliklari, rasmlı kitoblarni kam sotib olishlari, ularni bolalarga o'qib berishga vaqt yetishmasligi.

Ana shunday kamchiliklarni bartaraf etishda bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari imkoniyatlarining ortib borayotganligidan foydalanish lozim. Matbuot, radio, televideniyaning imkoniyatlari ayniqsa, cheksiz. Hozirgi kunda televideniya orqali topishmoqlar mavzuida testlar, bolalar ko'rsatuvlari o'tkazilib turibdi. Bolalar nashrlarida ham bolalarning ekologik bilimlarini oshirishga qaratilgan ma'lumotlar bo'lsada, lekin topishmoqlar kam uchraydi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda, tarbiyachilar faoliyatini ilmiy nuqtai nazardan qayta bir ko'rib chiqishlari talab etiladi.

“Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturida bolalarga tabiat haqidagi bilimlar berish ilk yoshdan boshlanishi kerakligi ta'kidlanadi.

Dasturda ko'rsatilishicha maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik bilim va tarbiya quyidagicha beriladi:

“Tevarak-atrof bilan tanishtirish” va “Ekologik tarbiya”
dasturidan olish kerak.

- Ilk yosh davri
- 2-3 yosh davri
- Kichik yosh davri
- O’rta yosh davri (4-5)
- Katta yosh davri (6 yoshgacha)
- Maktabga tayyorlov davri

Ko’rinib turibdiki, dasturda tevarak-atrof bilan tanishtirish, ularga ekologik bilim berib, ekologik madaniyatini shakllantirish yuzasidan uzluksiz bilim, ko’nikmalar berib borilishi, davlat talablarida qayd etilgan me’yorlarga muvofiq holda yosh avlodning har tomonlama rivojlanishiga mos tarzda belgilab berilgan. Dasturda belgilangan barcha tadbirlar bolalarning shaxsiy psixologik rivojlanishiga mos keladi.

Dasturda belgilangan vazifalarni bolalarga singdirishdagi eng maqbul vosita bu topishmoqdir. Topishmoqlar yordamida bolalar tevarak-atrofnı tushunib, bilib oladilar, obrazli, mantiqiy, ijodiy fikrlashga o’rganadilar, ularning og’zaki savodxonliklari o’zaroaloqa vositasi bo’lgan nutqi rivoj topadi, tasavvuri kengayib xotirasi o’sadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mazkur muaamoni ilmiy-amaliy jihatdan o’rganish shuni ko’rsatadiki, xaq topishmoqlari vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish muammosi dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish 50-yillardan boshlab ilmiy jihatdan tadqiq etila boshlandi. Olib borilgan tadqiqotlar bolalarning

ekologik tushunchalarini shakllantirishda topishmoqlardan umumli foydalanilmayotganligini ko'rsatadi.

Demak, MTMda bolalarga ekologik tarbiya berishda xaqi topishmoqlaridan foydalanishning samarali usullarini izlab topish va tajriba sinovdan o'tkazish lozim degan xulosani beradi.

II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ TOPISHMOQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI, SHART-SHAROITLARI.

2.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish mazmuni

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga muxabbat uyg'otish uni avaylab asrashga o'rgatish ko'p jihatdan o'zbek xalq topishmoqlaridan unimli foydalana bilishga bog'liq. Chunki xalq topishmoqlari orqali bola bir tomondan ekologik bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan uni qiziqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar bolalarning nutqi tovush madaniyatini tarbiyalashda ularni so'zlashuvga o'rgatish tafakkurini rivojlantirishda yordam beradi.

Ularga turmushda ishlatiladigan narsalar ularning nomlari sifatleri ularga tegishli harakatlar to'g'risida ma'lumotlar berishda topishmoqlar juda qo'l keladi. Eng muhimi bolalar tabiat hodisalar sabablari va mohiyatini tushunib yetadi. Topishmoqlar bolalarda baddiy ijodga rag'bat uyg'otadi.

Topishmoqlar orqali bolalar baddiy ijod sirlarini egallay boshlaydi. Voqea-hodisalarni kuzatishga solishtirishga o'zicha hulosa chiqarishga o'rganadilar. MTMda ekologik mavzudagi topishmoqlarni tanlash va ulardan foydalanish o'ziga hos masulyat ta'lab etadi.

Tarbiyachi bunda qator tamoyillarga amal qilishi lozim:

1. Topishmoqlarning tushinarlilik tamoyili. Topishmoqlarning rushinarli bo'lishi uni tanlashning eng muhim tamoyilidir. Zero bola topishmoqning makzmoni, talabi, narsa va hodisa nimga o'xshashi bilan tanish bo'lmasa bu topishmoqning javobini topa olmaydi. Bu tamoyil bolalarning bilish imkoniyatlarining hisobga olishni imkoniyatlar o'sishi bilan topishmoqlarni murakkablashtirib borishni talab etadi.

Osondan murakkabga ma'suldan-noma'sulga qarab boorish ko'rgazmalilikdan unimli foydalanish topishmoqning tushunarligini ta'minlaydigan vositadir.

2. Topishmoqning bola ruhiy-ma'naviy olamini rivojlantirish va ularni tarbiyalashga qaratilgan.

Har qanday topishmoq boladan fikrlashni, aqliy faoliyatini tarbiyalab berishni, hayotdagi narsa va hodisalarning o'ziga xos belgi-xususiyatlarini zukkolik bilan kuzatib, uning hayotdagi o'rnini baholay bilishni talab etadi. Bu bolalarning diqqatini, kuzatuvchanligini, tevarak-atrofga nisbatan ziyrakligini, bilimini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

Xalq topishmoqlari bolalarning estetik didini, ya'ni go'zallikni his etish tushunish qobiliyatini tarbiyalaydi, shu orqali ularning murg'ak qalbida axloqiy fazilat;arning qaror topishi uchun zamin hozirlaydi.

3. Topishmoqlarning ko'rsatmaliligi tamoyili. Topishmoqlarda narsa-hodisalarning belgisi, xatti-harakati, holati, vazifalarini atayin yashirgan holda yoki boshqa o'ziga o'xshash narsa va hodisaga badiiy qiyoslab berilsada, topishmoq mavzuiga singdirilgan narsa-hodisaning badiiy obrazi ko'zga yorqin tashlanib turadi.

Xalq topishmoqlaridan foydalanishda ko'rgazmali qurollar bolaning qiziqishini yanada oshiradi. Topishmoqning mazmunini tushunishni osonlashtiradi.

4. Topishmoqning mashg'ulot mavzusi bilan aloqadorligi tamoyili. Topishmoqlar mashg'ulotning mavzusiga mos bo'lishi, aniq tizimga solingan bo'lishi, nimanidir o'rgatishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. Shunda ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyati kengayadi.

5. Topishmoqning murakkablashib borishi tamoyili. Topishmoqlarni bolalarga aytib berilayotganda ularni asta-sekin murakkablashtirib borish kerak. Kichik yoshda sodda, kam so'zli topishmoqlardan foydalanilsa, katta yoshda

bolani o'ylash, fikrlashga undaydigan qiyoslash, xulosa chiqarishni talab qiladigan murakkab topishmoqlar tavsiya etiladi.

6. Topishmoqlarning bolalar faolligini oshirishga qaratilganligi tamoyili. Bunday topishmoqlar bolalarda xalq ijodiga qiziqish uyg'otadi. Qiziqish orqali bola oldinga intiladi. Intilish shaxsning psixik holati bo'lib, noma'lumdan ma'lumga qarab olib boradi. Topishmoqning matni qiziqarli bo'lgandagina bolalarga faollik oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida o'rganilayotgan topishmoqning mazmuni ustida ishlash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shu orqali bolalar hayotdagi narsa-hodisalarning mohiyatini anglay boshlaydilar, turmushni o'rganadilar, oq-qorani, yaxshi-yomonni taniy boradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga muhabbat uyg'otish, uni asarb-avaylashga o'rgatish xalq topishmoqlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Topishmoqlar bolalarning nutqi, tovush madaniyatini tarbiyalashda, so'zlashuvga o'rgatish, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Ularga turmushda ishlatiladigan narsalar va shu narsalar haqiga ma'lumot beradi.

Folklorshunos olimlarning ta'kidlashicha, qadimda topishmoqlardan ko'proq ijtimoiy maqsadlarda foydalanilgan. Jumladan, u hozirgidek ta'limiy o'yin tarzida emas, balki aqlni sinashning jiddiy vositasi sifatida aytilgan. Topishmoqlar g'oyaviy mazmuniga ko'ra xilma-xildir. Ulardan turli g'oyaviy maqsadlarda foydalanilgan.

Topishmoq – topiladigan narsa, hodisa, jumboq, murakkab, chigal, belgi-xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsa yoki hodisa. XOI da topishmoq alohida janr bo'lib, eng qadim davrlardan boshlab insonlarning ongi, zehni va uquvini charxlash uchun xizmat qilib kelgan. Topishmoqlarda istiora, ko'chim, kinoya, qochirim yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, imo-ishora berish vositasida yashirilgan narsani topish talab qilinadi.

Topishmoq aytish va uni topish jarayoni aql va ziyraklik musobaqasi, ko'ngil hushlik, o'yin kulgi vositasi. Topishmoq aytuvchining ham, topuvchining ham xotirasi kuchli bo'lishi talab qilanadi. Qiyoslash va mantiqiy xulosalar chiqarish olish topqirlikni ta'minlovchi muhim omillardan sanaladi. "Otdan baland, itdan past", "Boraveradi-boraveradi tangaday joyni egallaydi" kabi topishmoqlarning javobi "egar" hamda "hassa" ekanini mantiqiy fikrlash va qiyoslov asosida aniqlanadi. Topishmoq bir jumla bilan she'riy bandeda, kichik hikoya tarzida ham ifodalanishi mumkin.

Oiladagi kattalar – bobo, buvi, ota, ona maxsus davra tashkil etish yo'li bilan farzandlarga yangi-yangi topishmoqlar aytib, ulardan javobini talab qilib borsalar, bu jarayon bolalar uchun qiziqarli o'yin, aql musobaqasiga aylanadi. Udumga ko'ra, topishmoq aytish musobaqasida yutqazgan shahar beradi yoki oldindan kelishilgan jazoga mustahiq bo'ladi. Oila davrasida bolaning izzat nafsig tegmaydigan, uni tahqirlamaydigan, balki yengil kulgi va hazil mutoyibaga sabab bo'ladigan jazo o'ylab topish maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq aytish, uning javobini topish jarayoni bolalarni kelgusida duch keladigan muammolarni yengishga, hayot jumboqlarini hal qilishga o'rgatadi. Ular diqqatlarini jamlashga, gapirilayotgan har bir jumlaning mohiyatiga e'tibor qilishga o'rganadilar.

Topishmoqlar mazmuniga ko'ra – uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar haqidagi topishmoqlar, parrandalar haqidagi topishmoqlar, mevalar haqidagi, o'simliklar haqidagi va boshqa turlarga ajratiladi. Ular bolalarga har bir narsa-hodisa, jonli-jonsiz tabiat haqida to'liq ma'lumot beradi.

Topishmoqlar kompozitsion tarkibiga ko'ra ikki qismdan iborat:

1. Yashiringan narsa-hodisalarning asosiy yetakchi belgilarini tavsiflangan qismi. Bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisaning ta'rifi beriladi. Bu topishmoqning jumboq qismi hisoblanadi.

2. Jumboqlangan yoki yashiringan narsa-hodisaning o'zi. Bu topishmoqning yechimi bo'lib, javob deb ham yuritiladi.

U topishmoqda ochiq-oydin nomlanmaydi, balki bir qismi orqali anglashilib turadi. Shu anglanganlik topishmoqning javobi demakdir. Anglangan fikrni aytib bermoq javobni isbotlamoq demakdir.

Topishmoqdagi milliy ruhni hisobga olish va bolalarga har qanday topishmoqni bermaslik kerak bo'ladi.

Topishmoqlar ekologik bilim va tarbiya berishdagi o'rni va ro'li quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Topishmoqlar bolalarga ikki xil tabiat dunyosi borligi haqida bilim beradi.
- Tabiatdagi tirik organizmlar ularning yashashi, ko'payishi, oziqlanishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
- Tabiatda har bir narsani yetishtirishning mavjud qiyinchiliklari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
- Yovvoyi tabiatning o'ziga xosligi haqida bilim beriladi. (pista, do'lana, bodom kabilar yovvoyi tabiatda yetishishi haqida ma'lumot oladilar).
- Insonlarning yovvoyi tabiatga ta'siri va g'amxo'rliqi haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- Tabiatda jonli va jonsiz narsalarning o'zaro bog'liqligi, biri ikkinchisi bilan uyg'un ekanligi, kichik bir yo'qotish katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkinligi haqida bilimlar beriladi.

Ekologik tarbiya berishda topishmoqlardan foydalanish orqali quyidagilarga erishish mumkin.

- xalq topishmoqlari orqali bolalar o'zlarini o'rab turgan olam haqida tushunchaga ega bo'ladi.
- mevali, mevasiz daraxtlar, gullar, sabzavotlar, hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, qirlar, dalalar, quyosh, osmon, xullas dunyoqarashini

shakllantirishga oid bilimlarga ega bo'ladi, ular haqidagi tasavvurlari shakllanadi.

- tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o'rganadi.
- Narsa va hodisalarni o'rganish orqali ularni farqlashga, ajrata bilishga o'rganadi.

Xullas, topishmoqlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni, ekologik bilim va malakalarni shakllantirishning eng qulay usuli bo'lib, ular orqali bolalar o'zlarining tevarak-atrof bilan muomala-munosabatlarini to'g'ri tashkil qilib oladilar. Eng muhimi, bolalarda tabiatga nisbatan insoniy tuyg'u shakllanadi.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berishning shakli, usullari va metodlari

Tarbiyachilar bolalarga insonni o'rab olgan olamning murakkabligini, ajoyibotlarini, sirliligini anglashlariga, tabiat inson turmush tarzi qulayliklarining garovi ekanligini tushunib yetishlariga shu sababdan tabiatni muhofaza qilishni idrok qilishlariga yordamlashadilar. Shuni unutmaslik lozimki, tabiatdagi hamma narsa, voqea-hodisalar bolalar uchun qiziqarli va sirli topishmoqday tuyuladi. Ular bu jumboqlar sirini bilishga, sabablarini anglashga harakat qiladilar. Bola dastlabki tizimli ta'limni MTM da oladi. Binobarin, uning sog'lom, har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shunday topishmoqlar ham borki, ular bolalarni bevosita chuqur o'ylashga mushohada yuritishga majbur qiladi. Bular masala, topishmoq deb yurutiladi. Bu topishmoqlar o'z husususiyatiga ko'ra bolalarda matmatik tushunchalarni idrok etishga arifmetik hisob kitob jarayonida mavhum tavakurining kurtak ochishiga yo'l ochadi. Masalan kunlardan bir kun chol o'g'liga 30 tiyin berib shunday deydi: O'g'lim shu pulga narsa olib kelginki biz ham tovug'imiz ham, qo'zimiz ham to'yadigan bo'lsin.

Aytinglarchi bolajonlar daryoning oldida qarag'ay o'sadi. Ularning har birida uchtdan yo'g'on shoxi bor. Har bir yo'g'on shoxida beshtadan novda bor. Har novdada yetti donadan olma bo'lsa, hammasi bo'lib nechta dona olma bo'ladi. (qarag'ayda olma bo'lmaydi).

Bunday topishmoq bolalarda mantiqiy fikrlash malakasini shakllantiradi. U qarag'ay daraxti olma solmasligidan iborat haqiqatni idrok etadi. Eng muhimi bola o'zi anglab yetgan haqiqatdan chalg'imaslik sabog'ini olarkan, bunda qarag'ay va olma o'rtasidagi farqni tushunib yetadi. Qarag'ay mevasiz daraxt ekanligi, olma esa yegulik meva soladigan daraxtligini fahmlaydi, shu tariqa tabiatda mavjud

ekinlar farqlari tufayli rang-barangligini, betakrorligini va go'zalligini tuya boradi. Bu esa, o'z navbatida unda ekologik dunyoqarashning kurtak yozishiga yo'l qo'yadi.

Ekologik tarbiya berishni topishmoqlar vositasida amalga oshirishning o'ziga xos usullarini ishlab chiqish, topishmoqlarning bu boradagi pedagogik imkoniyatlarini ochish, didaktik ustuvorligini ko'rsatish va uni ta'lim-tarbiya tizimiga joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, o'simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalari, osmon yoritgichlari haqidagi topishmoqlar tarbiyalanuvchilar uchun juda qiziqarli bo'lib, ular bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirishga va mustahkamlashga yordam beradi. Biz tajriba-sinov ishlari jarayonida o'yin shaklidagi topishmoqlarga katta e'tibor qaratdik. Bu mashg'ulot turi, odatda, o'yin shaklida tashkil etiladi. O'yin musobaqa tarzida o'tadi. Bolalar 2-3 guruhga ajratilgan holda o'zaro bellashadilar. Birinchi guruh topishmoq aytsa, ikkinchi guruh unga javob topadi. O'yin shu tariqa davom etadi. Tajriba guruhlarda topishmoqlar orqali bolalarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga urindik. Bu ish aytilgan topishmoqlardagi so'zlarning ma'nolari ustida ishlash orqali amalga oshirildi. Masalan, "Tilla sandiq ochildi, ichidan zar sochildi" topishmog'idagi "tilla sandiq" va "zar" so'zlarining ma'nosi tarbiyachi tomonidan sharhlab berildi. Bunda xalq topishmoqlarining talaygina qismini bir yoki ikki misrali topishmoqlar tashkil etishi uqtirilib, bunday topishmoqlarda jumboqlangan narsalar mohiyati butun holicha metaforik yo'l bilan ifodalanishi quyidagicha izohlanadi:

- jumboqlangan narsa – metaforik narsa orqali;
- jumboqlangan narsa bir necha metaforik predmetlar orqali;
- bir nech jumboqlangan predmet bitta metaforik predmet orqali;
- bir necha jumboqlangan predmaet bir necha metaforik predmet orqali namoyon bo'lishi tushuntirildi.

Bola topishmoqda yashiringan narsalarni topish jarayonida turli qiyoslashlarga, o'xshatishlarga duch keladi. Bu hol uning badiiy mushohada yuritishiga imkon beradi. Masalan, "Zil gilam, zil-zil gilam, ko'taray desam og'ir gilam" topishmog'ini tahlil qilib ko'raylik. Bu topishmoqni eshitgan bola fikran naqshinkor, rangdor gilamni ko'z oldiga keltiradi. So'ngra gilamga o'xshaydigan narsalarni izlay boshlaydi. Shu haqda mushohada yuritadi. Nihoyat gilamdek og'ir, ko'tarib bo'lmaydigan, doim oyog'i ostida bo'lgan yer ko'z oldiga keladi. Qiyoslanganda bajaradigan vazifasiga ko'ra gilam ham, yer ham xalqning beminnat xizmatida bo'lishi bolaning topishmoq javobini topishiga turtki bo'ladi. Jamiyat rivojlangan sari topishmoqlarning mavzu doirasi va mazmuni o'zgarib boradi. Ayrimlari eskiradi, ayrimlari yangidan paydo bo'ladi. Eskirgan topishmoqlarda ko'pincha eski turmushga xos asbob-uskunalarining nomi uchraydi yoki topishmoq butunlay eski predmatlar haqida bo'ladi. Bunda bola o'sha predmetning tarixiylashgan yoki arxaiklashgan nomini ham bilishi lozim. Chunonchi "Yer tagida oy borar, oyni ko'rib boy borar" topishmog'iga e'tibor beraylik. Bu topishmoq qadimgi qishloq ho'jalik ishlarining asosiy quroli omoch va unga kiygizilgan so'qa haqidadir. Ammo hozir qishloq ho'jalik ishlarida bu predmetlar deyarli qo'llanilmaydi. Shuning uchun bola bu topishmoqning javobini topolmasligi mumkin. Tarbiyachi bunday topishmoqlarga duch kelganda shu predmetlarning barcha xususiyatlarini tushuntirishi va topishmoq yaratilishi uchun shu predmet qaysi predmetga qay jihatdan qiyoslanayotganligini sharhlashi mumkin.

Uzoq davrlardan beri avloddan-avlodga o'tib kelgan topishmoqlarni an'anaviy topishmoqlar deb atashadi. Bular asrlar davomida yaratilgan, avloddan-avlodga o'tib, sayqal topib kelayotgan topishmoqlardir. Ularda jumboqlangan, yashiringan narsaning o'xshatmasi ancha qadimdan hozirgi kunga qadar saqlangan, shu sababli yangi topishmoqlar an'anaviy topishmoqlardan farq qiladi. Ularda

yangi turmush predmetlari, asbob-uskunalari o'z aksini topadi. Masalan, "Uyga oldik bitta nok, yop-yorug' bo'ldi har yoq" topishmog'I lampochka xususidadir. Hozirgi kunda lampochkani ko'rmagan, uni yoqmagan bola bo'lmasa kerak, shunday ekan, bola tuzilishi va osilib turishi nokka o'xshagan, hamma yoqni o'zining yog'dusi bilan yoritib, uyning uyning o'rtasida osilib turadigan lampochka ekanligini tez tushunadi.

Ayrim predmaetlar haqida o'tmishda boshqacha topishmoq yaratilganligi ham ma'lum. Masalan, osmon haqida o'tmishda "Ko'k ko'ylakka qo'l yetmas", "K'ok kosani to'ntardim" topishmoqlari to'qilgan bo'lsa, keyinchalik "Kattakon zontik, ranglari ko'm-ko'k, ostiga sig'ar ko'p odam, ular yurar tip-tik" topishmog'I paydo bo'ldi. Osmonning rang blegisi bir xildsa saqlangan va shu birlamchi xususiyati topishmoq javobini topishga yordam beradi.

Ma'lumki, birgina narsaga oid topishmoqning o'nlab variantlari mavjud. Masalan, baliq haqidagi topishmoqning "Suvda tug'di, yerda o'ldi", "Qanoti bor uchmaydi, quruqlikda yurmaydi", "Joni bor jondan, suv ichar ko'ldan", "Ko'zlari nurdan, terisi puldan" singari variantlari bor.

Yuqoridagi misollardan shu narsa ravshan ko'rinayaptiki, topishmoqlarning ayrimlari o'tmishdan hozirgi kunga qadar tildan-tilga o'tib kelayotgan bo'lsa, ayrimlari keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida paydo bo'ldi. Topishmoq janri xalq ijodining doston, ertak, qo'shiq, maqol kabi janrlari bilan aloqada bo'lib, yo ularning tarkibiga syujetiga singan bo'ladi, yo bevosita shu janrlarga xos xususiyatlarni o'z xarakteriga moslashtiradi. Ikkinchi holatda oraliq janrlar namunalari yuzaga kelganki, ular topishmoq – qo'shiq, topishmoq – maqol, topishmoq – ertak va h.k nomlar bilan yuritiladi.

Topishmoqlarda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati go'zal obrazli ifodalarda aks etganligi bois, ular vositasida bolalarga juda ko'p narsalarni uqtirish, tushuntirish mumkin. Masalan, "O'zi farz,

bebismillo” topishmog’ida “Salom berish” insoniy burch ekanligi uqtiriladi. Xalq topishmoqlari rang-barang mazmun va shaklda bo’ladi. Ayrim topishmoqlar faqat bitta predmet haqida aytilsa, ba’zilar ikkita, uchta yoki undan ortiq predmetni jumboqlaydi.

Masalan, “Uzoq tog’da o’t yonar”(quyosh) topishmog’iga e’tibor qarataylik. Bu topishmoq orqali quyosh haqida tasavvur uyg’onadi. Chunki quyosh chiqayotganda yoki botayotganda alangaga o’xshaydi, bu paytda u kuzatilsa, huddi uzoqda olov yonayotgandek tuyuladi. Xususan, tog’li joyda bu manzara juda go’zal ko’rinadi va bolani maftun etuvchi mohiyat kasb etadi. Hamma gap bola tuygan ana shu go’zallikni e’zozlay bilish tuyg’usini uyg’ota bilishda. Buning uchun topishmoqni qaysi paytda aytish ham muhim ahamiyatga ega. Huddi shu topishmoq quyosh chiqishi yo botishi lahzalarini kuzatish asosida aytib yechilsa, bolaning murg’ak qalbi va shuurida ekologik tuyg’uning kurtak yozishiga ta’sir ko’rsatmay qo’ymaydi. “Oltin kelganda kumush ketar, ku mush kelganda oltin ketar” topishmog’ida oy va quyosh nazarda tutilgan. Chunki bu topishmoqda kunduzi sariq rangda oltindek tovlanadigan quyosh, tunni o’zining kumushdek yog’dusi bilan yoritib turuvchi oy o’z ifodasini topgan. Qolaversa, inson uchun quyosh va oy oltin va kumushdek qimmatlidir. Ular bu mavjudotning bitmas-tuganmas boyligi sanaladi. “Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi” topishmog’ida quyosh, oy, yulduzlar obrazi birgalikdakeltirib jumboqlangan. Ko’p predmetli topishmoqlarning o’ziga xos xususiyati shundaki, hazil savollar bolalarni o’ylashga, fikrlashga undaydi. Bu esa, o’z navbatida, ularda ziyraklik, topqirlikni oshirishga qaratilgan bo’ladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida topishmoqlarning quyidagi guruhlaridan foydalanish maqsadga muvofiq topildi:

- bolalarni ekin va o’simliklar bilan tanishtirishda daraxtlar, gullar, mevalar, poliz ekinlari, sabzavotlar haqidagi sodda topishmoqlar;

- tabiat hodisalari bilan tanishtirishda shamol, yomg'ir, qor, muz va h.k haqidagi topishmoqlar;
- hayvonlar, qushlar va hasharotlar bilan tanishtirishga (quyon, sigir, qo'y, ot kabi uy hayvonlari; yo'lbars, ayiq, tulki kabi yovvoyi hayvonlar; chumoli, o'rgimchak, pashsha kabi hasharotlar; bulbul, qarg'a, burgut, mmayna, laylak kabi qushlar va nihoyat, tovuq, xo'roz, o'rdak, g'oz kabi parrandalar) oid topishmoqlar;
- osmon jismlari (quyosh, oy, yulduz va h.k) bilan tanishtirish;
- uy-ro'zg'or buyumlari (qozon, choynak-piyola, ko'rpa-to'shak va h.k) bilan tanishtirish;
- inson tana a'zolari (qo'l, oyoq, bosh, yurak va h.k) bilan tanishtiruvchi topishmoqlardan foydalaniladi.

Topishmoqlarni bu xilda maxsus gurhlarga ajratish topishmoq o'yini yoki topishmoq mashg'uloti o'tkazilayotgan paytda zarur bo'lib, bu kerakli materialni darhol topishga va topishmoq javobini tezroq aniqlashga qulay imkoniyat yaratadi.

Xullas, yuqoridagi mulohazalar asosida tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun topishmoqlar tanlashda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishlari lozim:

- a) topishmoqlarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga;
- b) bolalarga tushunarligiga;
- c) topishmoqning qanday tuzilishga egaligiga;
- d) topishmoqning badiiy tiliga;
- e) topishmoqning nechta va qanday so'zlardan tarkib topganligiga;
- f) topishmoqning yaratilish davriga;
- g) topishmoqning bolalarning yoshi va ruhiy holatiga mos kelishi yoki kelmasligiga;
- h) topishmoqning bolalar turmush tarziga muvofiqligiga;

- i) topishmoqning MTM lar uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlariga muvofiqligiga.

Topishmoq tanlashda bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlarini xisobga olish juda muhimdir. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar yosh xususiyatlariga ko'ra uch: kichik, o'rta, katta guruhlarga bo'linadilar. Ularning dunyoqarashi, nutq boyligi bir-biridan keskin farq qiladi. Kichik guruhlarda bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtiruvchi, ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishlarini tarbiyalovchi, atrofidagi narsalar, odamlar haqida ma'lumot beruvchi topishmoqlardan foydalaniladi. Bu yoshdagi bolalarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning juda kuchli hayajonga ega bo'lishlaridir. Ular har qanday yangilikdan tez ta'sirlanadilar. Ayniqsa, ohangdor va qiziqarli topishmoq ularga tez ta'sir ko'rsatadi va ular bunday topishmoq o'yiniga bor vujudlari bilan kirishib ketadilar. To'rt yoshgacha bo'lgan bolalar ko'proq o'z turmushlariga yaqin narsalarga qiziqadilar, ular haqidagi dastlabki (jumladan, narsaning shakli, hajmi, ta'miga oid) ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shu vajdan ularga aytiladigan topishmoqlar bu yoshdagi bolalarning saviyasidan kelib chiqib tor mavzu doirasida tanlanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun tanlangan topishmoqlar, tabiiy ravishda, juda ixcham shaklda, soda tilda, ohangdor jumlar yordamida yaratilgan bo'lishi kerak. Bolalarning yoshi ulg'aygan sari tanlanadigan topishmoqlar murakkablashib boradi.

MTM ning o'rta yoshidagi (5yosh) bolalari narsa va godisalarni kichik yoshdagi bolalarga qaraganda ancha onli mushohada qiladilar va ularning har biriga xos belgi xususiyatlarini farqlay oladilar. Ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari keng bo'ladi. Endi ularga yashiringan predmetning faqat bitta belgi-xususiyati emas, bir necha belgi-xususiyatini aytsa bo'ladi.

Katta guruh (5-6yoshdagi) bolalarning topishmoqdan foydalanish imkoniyati yanada kengroq. Chunki bu yoshdagi bolalarning fikrlash darajasi, hutqi ancha

rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ularga murakkabroq topishmoqlarni tavsiya etish mumkin.

Katta guruh bolalarining diqqati ko'proq topishmoqlarning mazmuniga, g'oyasiga, obrazli so'zlarning izohiga qaratiladi.

MTMda topishmoqdan odatda o'yin mashg'uloti tarzida foydalaniladi va u quyidagi qismlardan tashkil topadi:

- topishmoq o'yin mashg'ulotini e'lon qilish;
- shartlarini tushuntirish;
- topishmoqni aytish (buni yo tarbiyachining o'zi yoki topishmoq aytishuvida ishtirok qilayotgan bolalar navbatma-navbat bajarishlari mumkin);
- javobini e'lon qilish;
- javobini dalillash;
- o'yin qatnashchilarini rag'batlantirish.

Katta makatabgacha yoshdagi bolalar tashqi olam, turmush detallari, o'simliklar va hayvonlar dunyosi, tabiat hodisalari bilan ancha tanish bo'ladilar. Ular ayrim hayvonlarni (mushuk, it, quyon va h.k), qush va parrandalarni (tovuq, xo'roz, g'oz, o'rdak, bedana va h.k) parvarish qiladilar, o'ynatadilar, asraydilar. Bu yoshdagi bolalar gerbariy yig'laydilar, fasllarni, undagi o'zgarishlarni bevosita kuzatadilar, har bir faslning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflay oladilar. Shuni nazarda tutib, ularga rang-barang mazmundagi topishmoqlarni bemalol aytish mumkin.

MTM tarbiyachisi topishmoq mashg'ulotlarida o'z tarbiyalanuvchilarining yakka hamda umumiy qobiliyatlarini, tajribalarini jiddiy kuzatib, hisobga olib bormog'I zarur. Tarbiyachi mashg'ulot davmida bolalarni topishmoqlarni mantiqiy tahlil asosida yechishga o'rgatmog'I lozim. Bolalar topishmoqda

yashiringan narsa yoki hodisaning eng muhim belgilari (yo ichki mohiyatini, yo ovozi, yo bajaradigan vazifasi) ni e'tiborga olib, yechimga kirishadi.

Bob yuzasidan xulosalar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim berishda topishmoqlardan foydalanish uchun topishmoq tanlash prinsipiga amal qilish kerak.

2. Dasturning tevarak-atrof bilan tanishtirish qismida har bir tushunchani hosil qilishda qaysi topishmoqlardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va ularni metodik qo'llanmada tasniflab berish lozim.

3. MTM tarbiyachilari uchun ishlab chiqilgan metodik qo'llanma va tavsiyalarda ekologik ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan topishmoqlarga keng o'rin ajratilishi lozim.

MTM tarbiyachilarining malaka oshirish kurslarida bolalarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berish shakllari, vositalari, usullari, metodlari maxsus kursini tashkil qilish lozim.

III BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ TOPISHMOQLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

3.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarini tashkilotish yo'llari.

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan eksperimental materialning to'g'ri hamda maqsadga muvofiq ravishda tanlanishiga bog'liq. Biz ekologik mavzudagi xalq topishmoqlarini tanlashda, yuqorida qayd qilganimizdek, bolalarning yoshi, umumiy tarqiyot darajasi, bola istiqomat qilayotgan mintaqaning hayvonot va o'simliklar olami, bolaning so'z boyligi, topishmoqda jumboqlanayotgan voqea, hodisa va narsaning xususiyatlariga muvofiq tushishini hisobga oldik.

Tajriba-sinov guruhlarida yetti xil yo'nalishdagi xalq topishmoqlaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik. Chunki maktabgacha yoshdagi katta guruhda tarbiyalanuvchi bolalar bunday topishmoqlarga javob topishga ruhiy va aqliy jihatdan tayyordirlar.

Bi quyida eksperimental material sifatida tanlangan topishmoqlarni tasnif qilgan holda maqsadga muvofiq deb bildik:

1. Yil fasllari va tabiat hodisalari haqidagi xalq topishmoqlari;
2. Hasharotlar haqidagi xalq topishmoqlari.
3. Parraanda va qushlar haqidagi xalq topishmoqlari.
4. O'simliklar, ekinlar, daraxtlar haqidagi xalq topishmoqlari.
5. Hayvonlar haqidagi xalq topishmoqlari.
6. Osmon, yer, suv haqidagi xalq topishmoqlari.
7. Meva, sabzavotlar, poliz ekinlari haqidagi xalq topishmoqlari.

1. Yil fasllari va tabiat hodisalari haqida ham juda ko'p xalq topishmoqlari yaratilgan bo'lib, ular orqali bolalarning fasllar haqidagi bilimlarini tekshirish va yanada kengaytirish, har bir faslning o'ziga xos eng muhim xususiyatlariga diqqatlarini qaratish, ya'ni bahorda kunlarning isiy oshlashi tufayli o't-o'lanlarning ko'karib chiqishi va gullashi, qushlarning uchib kelishi, yozda esa kunlarning nihoyat isib ketishi, pishiqchilik boshlanishi, kuzga kelib dov-daraxtlarning barglari sarg'ayishi va to'kilishi, kunlarning asta'sekin qisqarib soviy boshlashi, qushlar va hasharotlarning kam ko'zga tashlanishi, qishda kunlarning sovuq bo'lishi, qor yog'ishi, suvlarning muzlashi kabi tabiat hodisalari to'g'risida ma'lumot berish mumkin. Masalan, kuz tabiatini kuzatib, sayrdan qaytib kelgach, bolalar bilan suhbat o'tkazib, ularga quyidagi topishmoq berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Qizil, sariq, tovlanar,

Yerga tutdek yog'ilar (Kuzgi barg)

Bu topishmoqning javobi "kuzgi barg" ekanligini topishga bolalar qiynalmaydilar. Chunki kuz tabiatini kuzatgan, tevarak-atrofdan yuz berayotgan o'zgarishlarni – barglarning sarg'ayganini va asta-sekin yerga bitta-bitta uzilib tushayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib qaytgan bolalar uchun topishmoqda aytilayotgan manzara notanish emas, shuning uchun topishmoqni eshitishlari bilan ular tasavvurida darhol kuz tabiati jonlanishi tabiiy. Sababi topishmoqdagi "sariq tovlanar", "yerga yog'ilar" kabi jumlar "kuzda barglarning sarg'ayib, yerga bitta-bitta uzilib tushishiga" to'la ishoradir.

Shuningdek, topishmoqlar vositasida yomg'ir, shamol, momaqaldiroq kabi tabiat hodisalari qachon va qay holatda yuz berayotgani haqida ma'lumot berish mumkin.

Shunday topishmoqlar ham bor, ular orqali bolalar yil fasllarining almashinishi bilan bog'liq o'zgarishlar tabiat qonuni ekanligini his etadilar hamda

ularning miqdori va sifatiiy o'zgarishlari haqida ma'lumot oladilar. Jumladan, quyidagi topishmoqlar fikrimizning yorqin dalilidir:

Kelib ketar bir yilda,

To'rt og'ayni har yilda.

Yoki:

Bir onasi bor, o'n ikki bolasi bor.

Xullas, yil, fasllar va oylar soni, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari, tabiat hodisalari haqida yaratilgan xalq topishmoqlari orqali bolalarga tez va oson bilim berish va ularning bu boradagi tasavvur-tushunchalarini yanada boyitish mumkin:

Bola kelar, bola kelar,

Ilk mehr ola kelar.

Siylab-siylab daraxtlarga,

Guldan marjon taqib kelar. (Bahor)

Bu topishmoqda esa "bahor" fasli "daraxtlarga marjon taqib kelar" ifodasi orqali metaforik, ya'ni shartli ko'chim tilida yashirin aytilayotgani sezilib turibdi.

2. Hasharotlar haqidagi topishmoqlar. O'zbek xalq topishmoqlari orasida hasharotlar haqidagi topishmoqlar talaygina qismini tashkil etadi. Bu hasharotlarning ayrimlari bolalarga tanish bo'lsa, ayrimlari notanishdir. Masalan, ari, chumoli, pashsha, o'rgimchak, ipak qurti xususidagi topishmoqlarga javob topish ularga jiddiy qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki bu hasharotlarni bolalar tez-tez ko'radilar yoki bu haqda ko'p eshitadilar.

Biz tajriba-sinov guruhlarida hasharot haqidagi xalq topishmoqlaridan foydalanib, quyidagi mashg'ulotni o'tkazdik.

Maqsad: Bolalarning hasharotlar turlari, ular yashaydigan muhit haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish, har bir hasharot turiga xos belgilarni (katta-kichikligi, tanasi va tana qismlarining o'ziga xosligi, rangi, tovushi, harakatlanish

usuli kabilarni) farqlashga, foydasi va zarariga ko'ra ularni ajrata olishga o'rgatish, foydali hasharotlarning nima bilan ovqatlanishi haqida ma'lumot berish.

Mashg'ulotni tashkil etish: asalari, ipak qurti, chigirtka, ninachi, tilla qo'ng'iz, kapalak, pashsha, o'rgimchak tasvirlangan rasmlar tayyorlash (asalari katakchalari, har xil ipak matolar).

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar bugun biz hasharotlarni o'rganish, ular haqidagi bilimlarimizni sinab ko'rish uchun topishmoq aytishuvi o'tkazamiz. Aytishuvda faol qatnashganlar rag'batlantiriladi. Qani toping-chi, mana bu topishmoq qaysi hasharot to'g'risida:

Tut bargidan o'zga ovqat,

Ko'rinmaydi ko'ziga.

Shohi bo'lar, atlas bo'lar,

Foydasi yo'q o'ziga.

Bolalar: - Bu ipak qurti. Chunki ipak qurtini odamlar tut bargi berib, maxsus boqishadi.

Tarbiyachi bolalarga rasmlar orasidan ipak qurti tasvirini topib ko'rsatishni buyuradi va "menga ipak qurti to'g'risida bilganlaringizni gapirib beringlar" deb murojaat qiladi. Qiynalgan bolalarga quyidagi savollar bilan yordam beradi: "Ipak qurti dastlab qanday ko'rinishda bo'ladi?". Bu o'rinda ipak qurti haqida yaratilgan boshqa qisqa hajmli, kam so'zli topishmoqlardan ham foydalanishi ham mumkin:

Tutdan bizga ko'ylak to'qir.

Yoki:

K'ok yeb, oltin o'raydi.

Ko'rinayaptiki, ularning barchasida ham ipak qurtining asosiy belgisi tut bargidan oziqlanib, ipak to'qishi inobatga olib yaratilgan. Shuning uchun ipak

qurtiga xos ana shu asosiy belgini bolalar xotirasiga singdirishda ushbu topishmoqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi: Bilasizlarmi, hasharotlardan asalari, o'rgimchak, pashsha, kapalak, chumoli haqida yaratilgan xalq topishmoqlari juda ko'p. sizlar shulardan qaysi biri haqida topishmoq bilasizlar?

1-bola: Men asalari haqida shunday topishmoq bilaman:

Guldan-gulga qo'nadi,

Sharbat yig'ib yuradi.

Yig'ib o'zi yemaydi,

Uyasiga to'playdi.

2-bola: Men o'rgimchak haqida topishmoq aytmoqchiman:

To'r ustida yashaydi,

Pashshani o'rab tashlaydi.

Tarbiyachi: U haqida biz gapirib ber.

2-bola: O'rgimchak uylarning burchagida, iflos joylarda bo'ladi. Agar uy supurilmagan, tozalanmagan bo'lsa, darhol o'sha yerlarga in qurib oladi. Uning ini to'qilgan to'r ko'rinishida bo'ladi. U o'zi ovlagan boshqa hasharotlar, masalan, chivin, pashsha, kapalak, chumoli kabilarni o'z to'rlari bilan o'rab oladi.

Tarbiyachi: Bolalar, menga barcha fikrlaringiz ma'qul. Sizlar to'g'ri aytayapsiz. Endi men sizlarga yuqorida nomlari aytib o'tilgan hasharotlardan yana biri haqida topishmoq aytaman. Qani, ayting-chi, bu topishmoqda qaysi hasharot haqida aytiladi?

Mitti oriq otim bor,

Beli ingichka qilday.

Ammo turmaydi bekor,

Ishda qudrati filday. Bu ...

Bolalar : - Chumoli !

Tarbiyachi: - To'g'ri.

Bolalar: - Chumolilarning beli ingichka bo'ladi, ular doimo u yoki bu narsani u yoqdan bu yoqqa tashib yurishadi.

Tarbiyachi: - Ha balli! Demak, bolalar, guvohi bo'ldingizki, topishmoqlarda yashiringan narsaning nomini to'g'ri topa olar ekansiz.

Shunday qilib, bugungi mashg'ulotimizni tugatamiz. Kelgusi mashg'ulotimizda endi ninachi, xon qizi, chigirtka kabi hasharotlarni ushlab olib, ularning ko'rinishi, o'ziga xos belgilari bilan yaqindan tanishamiz.

3. Parranda va qushlar haqida. Parranda va qushlarga doir topishmoqlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy qiziqish ob'yektlaridan biridir. Ularning ba'zilarini hatto bolalarning o'zlari bevosita boqishlari mumkin. Shuning uchun ko'pgina parranda va qushlarning belgilari bolalarga juda tanish bo'lib, ularni yechish jiddiy qiyinchilik tug'dirmaydi.

Parranda va qushlar haqidagi topishmoqlar bolalarning mavjud bilimlarini yanada boyitadi. Tarbiyachilar mashg'ulotda avval bolalarga tanish parranda va qushlar haqidagi topishmoqlarni, so'ngra notanish hayvonlarga oid topishmoqlarni berishlari maqsadga muvofiq. Biz tajriba-sinov guruhlarida parranda va qushlar haqidagi quyidagi xalq topishmoqlaridan foydalanib, shunday mashg'ulot o'tkazdik. Mashg'ulotning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarni qush va parrandalarning turlari bilan tanishtirish, shulardan qaysilari bevosita o'lkamizda mavjudligini bildirish. Beozor va yirtqich qushlar haqida ma'lumot berish, foydali qushlarni asrab-avaylash, ularga nisbatan mehribonlik va g'amho'rlik ko'rsatish zarurligini tushuntirish, parranda va qushlarni uy sharoitida parvarish qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish, parrandalardan olinadigan iste'mol tovarlarining foydalari haqida ma'lumotlar berish.

Mashg'ulot jihozlari: Turli qushlar va parrandalarning rangli rasmlari, maxsus uyada boqilayotgan to'ti, kanareyka, bedana kabi qushlar tovuq, xo'roz,

ayrim yirtqich qushlarning yumshoq va qattiq o'yinchoqlari, parrandalardan olinadigan iste'mol tovarlari, ko'rgazmasi par yostiq, tuxum, pechenye namunalari, kitoblar.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: - Bolalar, bugun biz sizlar bilan "Qanotli do'stlarimiz" – qushlar va parrandalar olamiga "Sayr" qilamiz va ular haqida kim qancha bilishini topishmoqlar orqali sinab aniqlab olamiz. Men hozir sizlarga mana bu ko'rgazmada qo'yilgan qushlar, parrandala haqida topishmoqlar aytaman. Sizlar esa ularning yo rasmini yo o'zini topib menga ko'rsatasiz va bioz shu orqali topishmoqda yashiringan "Qanotli do'stlarimiz" nomini ayatamiz.

1-topishmoq: Udir bahor elchisi, yangi kunning kuychisi.

Har xonadon mehmoni, o'ylab ko'ringchi, bolalar?

Bolalar: - Xo'roz.

Bolalarning o'zlaridan ham qushlar va parrandalar haqida biladigan topishmoqlar so'rab olindi. Mashg'ulot so'ngida bolalar bilan "G'ozlarim" o'yini o'ynaldi. Mashg'ulotda faol qatnashgan bolalar rag'batlantirildi va barcha bolalar tovuq tuxumi solib pishirilgan pechenye bilan mehmon qilindi. Buning raxmati evaziga ular o'z qo'llari bilan katakdagi tovuqqa don sepib, suv berdilar.

4. O'simliklar, ekinlar, daraxtlar haqidagi topishmoqlar. Ko'pgina o'simliklar, ekinlar, daraxtlar bolalarga yaqindan tanish bo'lib, ularga javob topish, birinchidan juda qiziqarli bo'lsa, ikkinchidan, uncha murakkab emas. Ammo shunday daraxt turlari, o'simlik va ekinlar ham borki, bolalar ularni shaxsan ko'rmagan, ular haqida tasavvurga ega bo'lmasliklari mumkin. Shuning uchun tarbiyachilar bolalarni o'simliklar, ekin va daraxtlar bilan tanishtirish jarayonida xalq topishmoqlaridan foydalanmoqchi bo'lsalar, albatta, bunda topishmoq tanlashda ehtiyot bo'lishlari va bu muammoni e'tiborga olishlari zarur. Muhimi, ko'proq bolalarning daraxt va o'simlik, ekin turlari bilan qay darajada tanish

ekanliklarini hisobga olmoq lozim. Agar topishmoqda yashiringan o'simlik, ekin va daraxtning nomi bolalarga notanish bo'lsa, ular xususida umumiy ma'lumot berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu ma'lumot, shubhasiz, ularning tasavvurlarini kengaytiradi va topishmoqqa javob topishlarini osonlashtiradi.

Ma'lumki, bolalar tabiat shaydosidirlar. Ular ko'proq tabiat bag'rida, o'tloqlarda, daraxt soyalarida, bog'larning so'lim joylarida o'ynashni juda yoqtiradilar. O'z o'yinlari jarayonida hatto ba'zi giyohlarni, gullarni, daraxt novdalarini bilib-bilmay yulib olib, ulardan o'yin vositasi sifatida foydalanadilar, o'tloqlarni toptaydilar, daraxt shoxlarini sindiradilar. Kezi kelganda ba'zi bog'lardagi mevali daraxtlarga tosh otib, pishgan-pishmagan mevalarni uzib olib, isrofgarchilikka yo'l ham qo'yadilar. Shuning uchun bolalarga o'simlik va daraxtlarning inson hayotidagi ro'lini, ularning atmosfera havosini tozalab, yangilab turishdagi ahamiyatini uqtirish, ko'pgina oziq-ovqat va iste'mol tovarlari bevosita o'simliklardan, daraxtlardan, turli ekinlardan olinishini tushuntirish juda muhim masala bo'lib, bu borada xalq topishmoqlari usgub ta'limiy-tarbiyaviy ishni ososlashtiruvchi eng asosiy metodik vosita sifatida xizmat qila oladi.

O'simliklar, ekinlar, daraxtlar haqida juda ko'p xalq topishmoqlari yaratilgan bo'lib, ular o'z tarkibiga gullar, o't-o'lanlar, mevali va mevasiz (manzarali) daraxtlar, paxta, makkajo'xori, bug'doy kabi hosil beruvchi ekinlar haqida yaratilgan topishmoqlarni qamrab oladi. Gullar haqida yaratilgan topishmoqlarda gullarning hidi, rangi, ko'rinishi, chiroyi, inobatga olinsa, giyohlar va o't-o'lanlar haqida yaratilgan topishmoqlarda ularning inson uchun foydali yoki zararli tomonlari, unib-o'sish muhiti, shakl-shamoyili, daraxtlarning esa ko'rinishi, gullashi, mevasi yoki manzaraviyligi hisobga olingan bo'ladi. Ekinlarning esa ko'proq inson uchun iste'mol tovari ekanligi haqida gapiriladi. Demak, shu belgilari asosida bolalarga ular haqida ma'lumot berish yoki mavjud bilimlarini mustahkamlash mumkin.

3.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov tahlili va ularning samaradorligi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtirishdan oldin maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zbek xalq topishmoqlaridan ekologik tarbiya vositasi sifatida foydalanish darajasini belgilovchi me'yorlar ishlab chiqildi. Bunda tekshiruvlarning yil boshidagi va eksperiment jarayondan keyingi holatiga e'tibor qaratish nazarda tutildi. Olingan natijalarni o'zaro qiyoslash va samaradorligini belgilash maqsadida quyidagi me'yorlarga asoslanildi:

1. Bolalarning ekologik yo'nalishdagi o'zbek xalq topishmoqlarini bilish darajasi.
2. Bolalarning topishmoq to'qiy olish darajasi.
3. Bolalarning topishmoqqa javob topa olish darajasi.
4. Bolalarning ona tabiatga munosabatini aniqlash darajasi.

1. Bolalarning ekologik yo'nalishdagi o'zbek xalq topishmoqlarini bilish darajasi. Biz nazorat guruhlarida ham, tajriba guruhlarida ham bolalarning ekologik mavzuda qancha topishmoq bilish darajasi bilan qiziqdik. Bu me'yor bo'yicha bolalar uch guruhga ajratildi:

A. Yuqori daraja (biz uni shartli ravishda "A" deb oldik). Bu guruhga kiritilgan bolalar har bir yo'nalish bo'yicha 3-4 ta.

B. O'rta daraja (biz uni shartli ravishda "B" daraja deb oldik). Bu darajaga kiritilgan bolalar har bir yo'nalish bo'yicha 1-2 ta topishmoq bilishadi.

C. Quyi daraja (biz uni shartli ravishda "C" daraja deb oldik). Bu darajaga kiritilgan bolalar belgilangan yo'nalishlar bo'yicha birorta ham topishmoq bilmaydi.

2. Bolalarning topishmoq to'qiy olish darajasi. Topishmoq to'qish boladan ham zukkolik, ham donolik, ham ijodkorlikni talab etadi. Topishmoq to'qish

jarayonida bola jumboqlanayotgan predmet, hodisa haqida o'ylaydi va eng muhimi o'zligini namoyish etishga intiladi.

Bolalarning topishmoq to'qiy olish imkoniyatlarini nazarda tutib, ularni 4 guruhga ajratdik:

A. Topishmoq to'qiy oladigan bolalar. Bu guruhga har bir ekologik yo'nalish bo'yicha 3-4 topishmoq to'qiy oladigan, jumboqlanayotgan narsa-hodisaning belgilarini to'g'ri ilg'ay bilgan va bemalol to'qigan topishmog'ining to'g'riligini isbotlay oladigan bolalar kiritildi. Biz bu guruhdagi bolalarni shartli ravishda "A" darajaga kiritdik.

B. Qisman to'g'ri topishmoq to'qiy oladigan bolalar. Bu guruhga har bir yo'nalish bo'yicha bemalol 3-4 ta topishmoq to'qiy olsada, uning bir yoki ikkitasigina jumboqlanayotgan narsa hodisani ifodalay oladigan bolalar kiritildi. Biz bu guruhdagi bolalarni shartli ravishda "B" darajaga kiritdik.

C. Ekologik mavzuda topishmoq to'qiy oladigan, ammo jumboqlanayotgan narsa-hodisaning belgilarini ifodalay olmaydigan bolalar. Bu guruhdagi bolalarni shartli ravishda "C" darajaga kiritdik.

D. Berilgan yo'nalishlar bo'yicha birorta ham topishmoq to'qiy olmaydigan bolalar. Mazkur guruhni shartli ravishda "D" daraja deb qabul qildik va bu guruhga birorta ham topishmoq to'qiy olmaydigan bolalarni kiritdik.

3. Bolalarning topishmoqqa javob topa olish darajasi. Aytilgan topishmoqqa javob topa olish darajasi jihatidan bolalarni 4 guruhga ajratish mumkin:

A. Eng yuqori daraja (shartli ravishda "A" daraja deb belgiladik). Bu darajadagilarga aytilgan topishmoqlarning 80-100 foiziga to'g'ri javob topa olgan bolalar kiritildi.

B. Yuqori daraja (shartli ravishda "B" daraja deb belgiladik). Bu guruhga aytilgan topishmoqlarning 55 foizidan 80 foizigacha to'g'ri javob topa olgan bolalar kiritildi.

C. O'rta daraja (shartli ravishda "C" deb belgiladik). Bu darajadagilarga aytilgan topishmoqlarning 30 foizidan 50 foizigacha to'g'ri javob topgan bolalar kiritildi.

D. Quyi daraja (shartli ravishda "D" daraja deb belgiladik). Bu darajaga aytilgan topishmoqlarning atigi 30 foiziga to'g'ri javob topgan bolalar kiritildi.

E. Eng quyi daraja (shartli ravishda "E" daraja deb belgiladik) bu darajadagilarga aytilgan topishmoqlarning birortasiga ham to'g'ri javob topa olmagan bolalar kiritildi.

4. Bolalarning ona tabiatga munosabatini aniqlash darajasi. Bolalarning ona tabiatga munosabati turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim bolalar borki, ona tabiatni jon dilidan yaxshi ko'radi, uni avaylaydi va qo'riqlashga intiladi. Bu ularning har bir harakatida namoyon bo'ladi (masalan, gullarga suv quyish, xonadagi gullarning changini artish, akvariumdagi baliqlarni oziqlantirish, yer maydonchasida mehnat qilish jarayonlarida va h.k). Ayrim bolalar borki, tabiatga befarq munosabatda bo'ladi, shunchaki tengqurlari, o'rtoqlariga ergashadi. Ana shu nuqta'i nazardan kelib chiqib, bu me'yor yuzasidan bolalarni tubandagi 3 guruhga ajratdik:

A. Yuqori daraja (shartli ravishda "A" daraja deb olindi). Bu guruhga har bir xatti-harakatida ona-tabiatni sevish, uni asrab-avaylashga intilishi namoyon bo'ladigan bolalar kiritildi.

B. O'rta daraja (shartli ravishda "B" daraja deb oldik). Bu darajadagilarga o'zi tashabbus ko'rsatmaydigan, ammo, tengqurlari, o'rtoqlariga ergashib, gullarga suv quyadigan, avariumdagi baliqchalarni oziqlantiradigan, yer maydonchasida ishlaydigan, ona tabiat haqidagi tushuncha va tasavvurlari uncha keng bo'lmagan bolalar kiritiladi.

D. Quyi daraja (shartli ravishda "C" daraja deb oldik). Bu darajadagilarga ona tabiat haqidagi tasavvurlari nihoyat tor bo'lgan, xalq topishmoqlariga javob topishga qiziqmaydigan, mehnat qilishga ishtiyoqi bo'lmagan, tabiatga ozor

yetkazadigan (suvni ifloslantiradigan, gullar va ekinlarni oyog'i bilan bosadigan, qushlarga ozor beradigan va h.k) bolalar kiritiladi.

Yuqorida berilgan jadvallardan shu narsa yaqqol ko'rinib turibdiki, o'quv yili oxirida tajriba guruhlarida erishilgan natijalar nazorat guruhlariga qaraganda ancha yuqori. Chunonchi, bolalarning ekologik yo'nalishdagi xalq topishmoqlarini bilish darajasi bo'yicha "A" ko'rsatkichli nazorat guruhlarida 25.6 foizni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhlarida 39 foizga yetdi.

"B" ko'rsatkich nazorat guruhlarida 38.6 foizni tashkil etsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich 40 foizni tashkil etadi. Ayniqsa, olingan natijalarning samaradorligini biz "C" ko'rsatkichli guruhlarida yaqqol ko'ramiz. Nazorat guruhida 35.6 foiz, tajriba guruhida esa bu ko'rsatkich 20.3 foizni tashkil qiladi.

O'quv yili oxirida bolalarning topishmoq to'qiy olish darajasi ham tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga qaraganda ancha yuqori.

"A" ko'rsatkich nazorat guruhlarida 20 foizni tashkil etsa, tajriba guruhida 43.7 foizni tashkil etadi. "B" ko'rsatkich nazorat guruhlarida 33.4 foiz, tajriba guruhida esa 39.4 foizni tashkil etadi.

"C" ko'rsatkich nazorat guruhida 35.2 foiz, tajriba guruhida esa 13.6 foizni tashkil etdi.

"D" daraja bo'yicha yana foiz miqdori yuqori ekanligi oydinlashdi, chunki bunda guruhlar bo'yicha birorta ham topishmoq to'qiy olmaydigan bolalar soni aniqlandi. Natijada "D" daraja bo'yicha ko'rsatkich nazorat guruhida 11.3 foizni tashkil etsa, tajriba guruhida 3.1 foizni tashkil etdi.

Bolalarning topishmoqqa javob topa olish darajasi bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov jarayonida "E" daraja bo'yicha tekshiruvlarda ham tajriba guruhlarida ko'rsatkich nazorat guruhlariga nisbatan yuqori bo'ldi. Sababi esa ayon. Chunki eksperimental guruhlarda olib borilgan tashkiliy-uslubiy ishlar natijasida bolalarning topishmoqqa javob topa olish imkoniyatlari birmuncha kengaytirildi.

Xullas, tajriba-sinov jarayonida bolalarning ekologik yo'nalishdagi xalq topshmoqlarini bilishi, bu yo'nalishdagi topishmoqlarga javob topa olishi, shuningdek, o'zlari ham topishmoq to'qiy olishi, ularning ona tabiatga munosabati aniqlanganda bu borada tajriba guruhlarida amalga oshirilgan ishlarning natijalari nazorat guruhdagilardan birmuncha yuqori darajada ekanligi oydinlashdi. Sababi tajriba guruhlarda aniq maqsad bilan olib borilgan ta'limiy-tarbiyaviy, metodik va tashkiliy ishlar bunga zamin hozirladi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan umumli, maqsadli, to'g'ri va keng foydalanilsa, uning samaradorligi oshib boraveradi hamda ko'zlangan maqsadga tez va oson erishiladi.

Tajriba natijalarini qayta ishlashda matematik-statistik usuldan foydalandik.

Tajriba jarayonida olingan natijalar 3.2.1 – jadvalda keltirilgan.



3.2.1 – jadval

Tajriba jarayonida olingan natijalar

№	Nazorat mazmuni	X	X	n
1.	Bolalarning ekologik yo'nalishdagi o'zbek xalq topishmoqlarini bilish darajasi	4,19	3,9	1,0
2.	Bolalarning topishmoq to'qiy olish darajasi	4,24	3,62	1,17
3.	Bolalarning topishmoqqa javob topa olish darajasi	4,01,	3,36	1,19
4.	Bolalarning ona tabiatga munosabatini aniqlash darajasi	4,24	3,60	1,12

Ushbu natijalarni diagramma shaklida tasvirlasak 1-chizmadagi ko'rinishni oladi.

1-chizma. Tajriba va nazorat guruhi natijalari qioysining diagramma ko'rinishi.



Diagrammaga e'tibor berilsa, bolalarning ekologik yo'nalishdagi o'zbek xalq topishmoqlarini bilish darajasi tajriba guruhida $X=4.19$ nazorat guruhida $X=3.9$, bolalarning topishmoq to'qiy olish darajasi tajriba guruhida $X=4.24$ nazorat guruhida $X=3.62$, bolalarning topishmoqqa javob topa olish darajasi tajriba

guruhida $X=4$ nazorat guruhida $X=3.36$, bolalarning o'z tabiatga munosabatini aniqlash darajasi tajriba guruhida $X=4.24$ nazorat guruhida $X=3.3$ ekanligini ko'ramiz.

Endi ba'zi nazorat ishlarining mazmuni va ulardan olingan natijalarning tahlilini keltiramiz.

Birinchi tajribamiz bolalarning ekologik yo'nalishdagi o'zbek xalq topishmoqlarini bilish darajasini aniqlashga qaratildi. Tajriba natijalarini matematik-statistika metodlari asosida qayta ishlash uchun bolalarning bilish darajasini shartli ravishda "3", "4", "5" baho bilan baholadik. Bunda yuqorida bayon qilingan 3 daraja asos qilib olindi (Yuqori daraja – "5", o'rta daraja "4", quyi daraja "3").

UMUMIY XULOSALAR

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagicha xulosalarga keldik.

1. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Prespublikasida umumiy o’rta ta’limni tashkil etish to’g’risida”gi 13 maydagi 203-sonli qarorida, shuningdek, “Ona va bola” davlat dasturida maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablarida maktabgacha ta’lim tarbiya muassasalarida bolalarning ekologik tarbiyasi muhim itimoiy-iqtisodiy va pedagogik ahamiyatga molik masalalardan biri ekanligi uqtirildi.

2. MTM larning katta guruhlarida xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berishning mavud ahvolini ilmiy tahlil etish bizni shunday xulosaga olib keldiki, bu yoshdagi bolalarning ekologik mavzudagi xalq topishmoqlariga javob topishi, ularni bilishi, topishmoq to’qiy olish daraasi, bolalarning ona tabiat haqidagi bilimlarida jiddiy nuqsonlar mavud ekan. Bu nuqsonlar mavjudligining tub sabablari, birinchidan, tarbiyachilar faoliyati bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchidan, mazkur dastur va qo’llanmalarda bolalarga xalq topishmoqlari orqali ekologik tarbiya berish maxsus o’rin ajratilmaganligidadir.

3. MTMning katta guruhlarida bolalarning xalq topishmoqlarini bilish darajasini takomillashtirish ko’p jihatdan ularning psixik rivojlanishi, mantiqiy fikrlash darajasi, va boshqa harakatlar bilan aloqadordir.

4. Bolalarning ekologik mavzularda topishmoq to’qish malakalarini takomillashtirish, jumboqlanayotgan narsaning muhim xususiyatlarini aytish, turli xildagi didaktik o’yinlarni ishga solish orqali amalga oshirilishi ayon bo’ldi.

5. Bolalarning ekologik mavzudagi xalq topishmoqlariga javob topishini yaxshilash, topishmoqlar bilan muntazam ishlash, namoyish etiladigan voitalarni ishga solish, tarbiyachining yaqin amaliy yordamini uyushtirish, bolalar bilan alohida ishlash orqali amalga ohirilishi ayon bo’ldi.

6. O'tkazilgan ta'limiy ishlar, tajriba-sinov, MTMning katta guruhlarida xalq topishmoqlarini ekologik tarbiya vositasiga aylantirish ancha samarali ekanligini to'la isbotladi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'lida mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch». Toshkent.: -2008 y
2. Karimov I.A. «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» T.: O`zbekiston. 1992 y
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston tarao`o`iyotining poydevori: Prezident. I.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi sessiyasida so`zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust. G`.G`.Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997 y
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. G`.G` barkamol avlod –O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997
5. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. T.:G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1996y
6. Bogataeva Z.A. Applikatsiya po motivam narodnogo ornamenta v detskom sadu. M.Prosveodenie. 1982 g
7. Bolalar bog`chasida estetik tarbiya (N.A.Vetlegina tahriri ostida) T.: O`qituvchi, 1981y
8. Bulatov S.S. Amaliy san'at qisqacha san'at lug`ati. T.:1992y
9. Bulatov S.S. O`zbek xalqi. Amaliy bezak san'ati. T.: Mehnat. -1991y
10. Volkova A.A. risovanie v mladshey gruppe dastkogo sada. Posobie dlya vospitateley. M.: 1992y
11. Gusanova M.A. Applikatsiya. M.: Prosveshenie -1997y
12. Davidchuk A.N. Konstruktsionnoe tvorchestvo doshkolnika. M.Prosvegtsenie. 1973
13. Jamoldinova O. Katta bog`cha yoshdagi bolalarni xalq hunarmandchiligi vositasida mehnatsevarlikni tarbiyalash. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tashkil etilgan dissertatsiya –T.1997y

14. Ibragimov U.Sh. Formirovanie u studentov fakulteta doshkolnogo vospitaniya pedagogicheskix umeniy po rukovodstvu iz deyatel'nosti detey. – Avtoref dis.kond.pel.rauk.M.: 1985y
15. Komn'skiy B.G. Velikaya didaktika. Azbr-RedSoch.-M, Uchpedgiz. 1955
16. Kamarova T.S. kak nuchit rebenka risovat. M., 1998y
17. Koney V.A. Kultura i arxitektura pedagogicheskogo prostranstva. G`.G`. Vopros fulosoviy. 1996y
18. Kosterin N.P. Uchebnoe resovanie 2-e. Perenrab-M, Prosveshenie. 1984y
19. Kulturologiya XX vek. Entseklpediya. V.2-x.t.G`.G`. red, sost.devit S.Ya. SRb. Universitetskaya kniga, 1998
20. Kutsakova X.V. Konstruirovaniye i ruchnoy trud v destkom sadu. M. Prosvechenie. 1991y
21. Mavlonova R., Hasanboeva O., Xoliqberdiev. Pedagogika. T., O`qituvchi 2002y
22. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. 2 -qismli. 1-k G`.V.I. loginova, T.G. samarukova taxriri ostida. T.O`qituvchi, 1991 y
23. Maktabgacha ta'lim muassasalari (bolalar bog`chalari) uchun dasturlar 11 –nomada –T., O`zPFITI, 1995 -1996y
24. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyachiga qo`yiladigan davlat talablari G`.G`. Maktabgacha ta'lim jurnali. T., 2000y